

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

**“MENEJMENT” KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

**UDK: 658.01.338.45:67/68 (575.1)**

**RAXIMBERDIYEV XATAMBOY DILSHODJON O‘G‘LI**

**KORXONA INNOVATSION FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISH VA  
RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI**

**70411201 – Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)  
mutaxassisligi bo‘yicha**

**magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar:**


**dotsent Yusupova D.T.**

**TOSHKENT – 2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Menejment" kafedrasida dastlabki  
himoyadan o'tgan.

22 -sonli bayonnoma "23" may 2023 y.

Kafedra mudiri: Yo'ldoshev N.Q.

  
imzo


23.05.2023y.  
sana

Ilmiy rahbar: Yusupova D.T.

  
imzo

22.05.2023y.  
sana

Talaba Raximberdiyev X.D.

  
imzo

22.05.2023  
sana

## ANNOTATSIYA

*Magistrlik dissertatsiyasi to'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni motivatsiyalashni rag'batlantirishga bag'ishlangan bo'lib, magistrlik dissertatsiyasi ishida, ishlab chiqarish korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Innovatsion jarayonlarning iqtisodiy mohiyati asoslangan. Ishlab chiqarish korxonalari innovatsiya faoliyatini baholashning uslubiy yondoshuvlari keltirilgan. To'qimachilik sanoati korxonalarida motivatsiyalashning ilmiy-nazariy hamda uslubiy masalalari tadqiq etilgan.*

*"FULL COTTON" MhJ korxonasida to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'nalishlari va zamonaviy xolati, korxonaning innovatsion faoliyatini taxlili qilingan. Korxonada innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish mexanizmini shakllantirish omillari asoslangan.*

*Magistrlik dissertatsiyasida to'qimachilik korxonalari innovatsion faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion faollik, to'qimachilik, mahsulot, tizim, muhit, maqsad, dastur, motivatsiya, motivlash, rag'batlantirish, mukofotlash, samara, foyda, rentabellik.*

## MUNDARIJA

|  |           |
|--|-----------|
| Annotatsiya.....   | 3         |
| Mundarija.....   | 4         |
| Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....  | 5         |
| Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....  | 6         |
| Keltirilgan qisqartmalar.....  | 7         |
| <b>I BOB. KIRISH.....</b>  | <b>8</b>  |
| 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....   | 8         |
| 1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....   | 9         |
| 1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....  | 10        |
| 1.4. Tadqiqotning obyekti va predmeti.....   | 11        |
| 1.5. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....   | 11        |
| <b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>   | <b>13</b> |
| 2.1. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat va uni amalga oshirish<br>usul va shakllari.....                      | 13        |
| 2.2. Innovatsion faoliyatni boshqarishda rag'batlantirishning ilmiy-<br>nazariy asoslari.....                        | 24        |
| <b>III BOB. METODOLOGIYA.....</b>  | <b>31</b> |
| 3.1. To'qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni<br>rag'batlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi..... | 31        |
| 3.2. Innovatsion faoliyatni boshqarishda motivatsiyalashning o'rni va<br>o'ziga xos jihatlari.....                   | 46        |
| <b>IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>  | <b>52</b> |
| 4.1. "FULL COTTON" MChJ innovatsion faoliyatining tahlili.....   | 52        |
| 4.2. Korxonada faoliyatida menejmentning motivlashtirish nazariyalari va<br>unda rag'batlantirishning o'rni.....     | 64        |
| <b>V BOB. XULOSA.....</b>  | <b>71</b> |
| 5.1. Innovatsion faoliyatni motivlashtirish tizimi samaradorligini<br>oshirish omillari.....                         | 71        |
| 5.2. Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish uslublarini<br>takomillashtirish.....                                   | 77        |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>  | <b>89</b> |
| <b>Ilovalar.....</b>   | <b>89</b> |

*Ko'rsatilgan jadvaldagi chiziqlar ko'rinmas holatga keltiriladi. O'ng tarafga betlar yoziladi.*

## I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so‘zsiz isbotlab bermoqdaki, to‘qimachilik sanoatining salohiyatini oshirish, birinchi navbatda tarmoqni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalarining jadal rivojlanishini ta‘minlash, faoliyat ko‘rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.. “Dunyo bozoridagi ilmiy hajmdor mahsulotlarning 36 foizi AQSH, 30foizi Yaponiya, 22 foizi Xitoy davlatiga to‘g‘ri keladi. Har bir million aholi soniga nisbatan ilmiy tadqiqot ishlari bilan band bo‘lganlar soni bo‘yicha 1-o‘rinda Isroil 8250 nafar, 2-o‘rinda Janubiy Koreya 7113 nafar, 3-o‘rinda esa Yaponiya 5210 nafarni tashkil etadi”. Bu esa, samarali innovatsion boshqaruv tizimini rag‘batlantirish va rivojlantirish kabi muhim masalalarni hal etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Jahonda iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida sanoat korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda boshqaruvning zamonaviy uslublarini qo‘llash, yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi innovatsion mahsulot turlarini yaratish, zamonaviy yuqori samaradorlikka ega mashina va dastgohlarni, yangi texnikani qo‘llash va ularni boshqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan izlanishlarda to‘qimachilik sanoati korxonalarida fan-texnika sig‘imi yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish ilmiy tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o‘tishi uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlari, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni keng joriy etish,